



O'ZBEKISTONDA ONA VA BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHDA PATRONAJNING ROLI

Axmedova Muslimaxon Ulug'bek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali Davolash
ishi yo'nalishi 24-04-guruh talabalari
axmedova_06@internet.ru

Marufjonova Naziraxon Muhammadjon qizi

naziraxon793@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17802447>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 28- noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 30- noyabr 2025 yil

KEY WORDS

UNICEF, Patronaj , Integratsiya
, Flugrafiya.

ABSTRACT

Kasalliklarni erta aniqlash ,homlador ayollar va chaqalog'i bor onalarni nazoratda ushlab va sog'lom turmush tarzini takomillashtirish to'g'risidagi tushuntirish ishlarini olib boruvchi kasb siz uchun ahamiyatsizga o'xshar lekin ,oilangizda mahallangizda qishloq yoki tumaningizda viloyatingizda yokida jamiyatimizda muhim ahamiyatga egadir .Xalq bilan muloqatda bo'lishda, xalqni dardiga davo topishda , kelajak avlodlarni yanada sog'lomashishida Patronajlik juda katta ahamiyat kasb qiladi

Toshkent 9-mart 2021 yil - UNICEF bugun O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga patronaj (uyga tashrif buyurish)ning universal-progressiv modeli bo'yicha 50 000 nusxada qo'llanma va kitobchalarni topshirdi. Ushbu nashrlar homilador va yaqinda farzand ko'rgan ayollar, shuningdek besh yoshgacha bo'lgan bolalarga xizmat ko'rsatadigan hamda aholi vaksinatasiya, homiladorlar salomatligi nazorati, kasalliklarni davolash uchum murojaat qiladigan asosiy xizmatlar ko'rsatiladigan birlamchi tibbiyot-sanitariya muassasalari faoliyatini yanada yaxshilashga qaratilgan.

Asosiy qism

Ushbu nashrlar tibbiyot xodimlariga bolalarning optimal o'sishi va rivojlanishini ta'minlash, xavf guruhiga kiradigan oilalarni aniqlash va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun kengaytirilgan, individual yordam ko'rsatishda yordam beradi, dedi sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Elmira Basitxanova. Ushbu materiallar bolalarning erta yoshdagi rivojlanishi, oziqlanish va ruhiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy dalillarga asoslangan xalqaro tavsiyalar va standartlar asosida ishlab chiqilgan. Ular patronaj hamshiralarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirishda yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, patronaj dasturlari ota-onalik ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ota-onalar va farzanlarning salomatligi hamda farovonligini yaxshilaydi.

«Integratsiyalashgan oilaviy xizmatlar to'plami transformatsion model bo'lib, oilaga ko'rsatiladigan xizmatlarni taqdim etish bo'yicha katta salohiyatga ega. Sog'liqni saqlash tizimi shahar va qishloq joylarida, shu jumladan olis hududlarda oilalar, homilador ayollar va yosh bolalar bilan muloqot qilish uchun katta imkoniyatlarga ega," - dedi UNICEFning

O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade."Patronaj dasturlari individual yordamni ta'minlashda, muhtoj oilalarga va jamoalarga to'g'ridan-to'g'ri yordam ko'rsatishda, ota-onalar va parvarishlovchilarni qo'llab-quvvatlashda, hamda ularning yosh bolalari uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishda hal qiluvchi va muhim ahamiyatga ega," deya ta'kidladi u.

Patronajning universal progressiv modelini joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni, psixologik ijtimoiy stressni va boshqa noxush holatlarni boshdan kechirayotgan parvarishlovchilarga ko'mak berishni yaxshilashi mumkin. Bu esaularga o'zlari va farzandlari to'g'risida g'amxo'rlik qilishlarida yordam beradi.



Yo'riqnoma va kitobchalarni ishlab chiqish va nashr etish universal-progressiv patronaj modelini amalga oshirishdagi birinchi qadamdir. UNICEF Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda ushbu yo'nalishdagi ishlarni davom ettirishni rejalashtirgan. Hozir patronaj hamshiralarni yangi metodikaga o'rgatadigan trenerlar guruhi tayyorlanmoqda. Yangi model hamshiralarning diplom oldi o'qish va malaka oshirish tizimiga kiritiladi. Barcha sa'y-harakatlar natijasida tibbiy yordam sifatini yaxshilash, yordam va g'amxo'rlikka muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlashni yanada yaxshilash mumkin bo'ladi.

Tibbiyotning birlamchi bo'g'ini muassasalari aholi orasida kasalliklarni erta aniqlash maqsadida o'tkaziladigan patronaj tadbirlarining asosiy ob'ekti hisoblanadi.

Xo'sh, ushbu tizimda o'tkaziladigan skrining tekshiruvlarida patronaj hamshirasining ishtiroki qay darajada?

Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati ma'lumotiga ko'ra, patronaj hamshiralarni hududdagi 2-10 yoshdagi bolalarning elektron ro'yxatini shakllantiradi. Ushbu ro'yxatdan gelmintoz kasalligi bilan dispanser nazoratida turganlarni ajratadi. Qolgan bolalarni skriningdan o'tkazish tarmoq rejasini kunlik, haftalik, oylik va yillik ko'rinishda tuzadi va reja asosida bolalarni skriningga taklif qiladi. Shuningdek, mazkur kasb egalari tomonidan hududdagi 3-18 yoshlardagi bolalar ro'yxati bir yilda bir marta skriningdan o'tkazish maqsadida tuzib chiqiladi. Ulardan onkogematologik kasalligi bilan dispanser nazoratida turganlar ajratiladi. Qolgan

bolalarni skriningdan o'tkazish tarmoq rejasini ishlab, ularni reja asosida skriningga taklif qiladi. 40 va undan yuqori yoshdagi aholi toifasidagi ro'yxatdan gipertoniya, yurak-ishemik kasalligi, surunkali yurak yetishmovchiligi va qandli diabet bilan nazoratda turganlarni ajratadi. Kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha skriningdan o'tishi kerak bo'lgan aholining elektron ro'yxatini tayyorlaydi va ularni tarmoq rejasini asosida skriningga chaqiradi. 35-55 yoshli ayollarda bachadon bo'yni saratoni hamda 45-65 yoshli ayollarda ko'krak bezi saratoni skriningi o'tkazishda tegishli ro'yxatni shakllantiradi. Dispanser nazoratida turganlarni ro'yxatdan ajratgan holda skriningdan o'tishi lozim bo'lgan aholining elektron ro'yxatini tibbiy brigada boshlig'i – oilaviy shifokorga taqdim qiladi. Reja asosida aholi kontingentini tekshiruvoldi tartib-qoidalar bilan tanishtirgan holda tekshiruvga chaqiradi. Xavf guruhlarini aniqlaydi, ular mavjud bo'lganda shifokoroldi ko'rigi xonasiga yuboradi. Patronaj hamshiralari aholi orasida tuberkulyoz infeksiyasi xavf guruhlarini aniqlaydi. Bunda sil kasalligining barcha turlari bilan og'rikan bemorlar bilan muloqotda bo'lgan shaxslar, surunkali kasalliklarga chalinganlar, OIV infeksiyasi bilan yashaydigan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga asosiy e'tiborni qaratadi. Xavf guruhiga mansub aholi ro'yxatini ishlab chiqadi. Flyurografiya o'tishi zarur bo'lganlar uchun tarmoq rejasini tuzadi va ularni ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarga tekshiruv uchun yo'naltiradi. Harakatlanishi cheklangan shaxslarning Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi mutaxassislari bilan mobil hamda portativ flyurografiya ko'riklaridan o'tkazilishini ta'minlaydi.

Xulosa

Yuqoridagilarga xulosa o'rnida shuni ayta olamizki o'zingiz, yaqinlaringizni qimmatli va qadrlig'ini asrab avaylashni istasangiz hududingizdagi patronaj hamshirasining so'zlariga quloq tuting, bergan tavsiyalarini amalda qo'llang. Shunday mas'uliyatli kasbda ishlayotgan patronaj hamshiralari va shunday ishlarni amalda olib borayotgan yurt boshimizga minaddorchilik bildiramiz

Foydaniqlanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulov Sh.R., Toirov A.A. Hamshiralik ishi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 352 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Patronaj hamshiralarning faoliyati bo'yicha yo'riqnoma. – Toshkent, 2022. – 48 b.
3. Halikova D.T., Abdurahmonova M.M. Oila va bola salomatligini saqlashda patronaj xizmati. – Toshkent: Ibn Sino, 2021. – 210 b.
4. Muqimova X. Patronaj hamshirasining vazifalari // Tadqiqotlar.uz. – 2024. – T.30, №3. – B. 220–222.
5. World Health Organization (WHO). Home-based care and community nursing: Guidelines for community and home health care. – Geneva: WHO Press, 2020. – 120 p.
6. UNICEF. Maternal and Newborn Health: Community Health and Home Visit Guidelines. – New York: UNICEF Publications, 2020. – 95 p.